

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

JADIDCHILIK DAVRIDA ALISHER NAVOIY MEROSONING O'RGANILISHI

Sanobar TO'LAGANOVA,
Filologiya fanlari doktori

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806376>

Annotatsiya: Maqolada jadidchilik davrida Alisher Navoiyning adabiy merosini o'rganish masalasi haqida so'z boradi. Jadidlar inqilobiy o'zgarishlar davrida mumtoz manbalarni o'rganish va uni zamonaviy ta'limga tadbiq etish yo'lida jiddiy amaliy harakatlarni olib borishadi. Alisher Navoiyning hijriy taqvim bo'yicha 500 yilligini nishonlash uchun Turkiston hukumati tomonidan qaror qabul qilinadi. Shoir tavalludini nishonlash asnosida jadidlar turkiy xalqlarni birlashtiruvchi adabiy qurultoy o'tkazishni va majmular yaratishni maqsad qilishadi. Xalq orasida o'tkaziladigan mashrabxonlik, bedilxonlik, navoiyxonlik kechalarini umum davlat miqyosida o'tkazish uchun jadidlar tomonidan dastur reja ishlab chiqiladi. Unga ko'ra shoirning ilmiy tarjimai holini yaratish, asarlarini to'plash, nashr qildirish, tadqiq etish masalalari kun tartibiga qo'yiladi. Adabiyotshunos olimlar tomonidan dastlabki izlanishlar chop etiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, jadid, mumtoz manbalar, chig'atoy adabiyoti, tasavvuf, matbuot.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос изучения литературного наследия Алишера Навои в период джадидов. В период революционных перемен джадиды предприняли серьезные практические шаги по изучению классических источников и применению их в современном образовании. Правительство Туркестана примет решение о праздновании 500-летия Алишера Навои по календарю хиджры. В дни празднования дня рождения поэта джадиды поставили перед собой цель провести литературный курултай и создать сборники, которые объединили бы тюркские народы. Джадиды разрабатывают программный план проведения в народе праздников машрабхана, бедилхана и навоихан в общенародном масштабе. По его словам, на повестку дня выносятся вопросы создания научной биографии поэта, собирания, публикации и исследования его произведений. Предварительные исследования публикуются литературоведами.

Ключевые слова: Алишер Навои, джадид, классические источники, Чигатайская литература, суфизм, пресса.

Abstract: The article examines the issue of studying the literary heritage of Alisher Navoi during the Jadid period. During the revolutionary changes, the Jadids took serious practical steps to study classical sources and apply them in modern education. The government of Turkestan will decide to celebrate the 500th anniversary of Alisher Navoi according to the Hijri calendar. During the celebration of the poet's birthday, the Jadids set themselves the goal of holding a literary congress and creating collections that would unite the Turkic peoples. The Jadids are developing a program plan for holding the Mashrabhana, Bedilhana and Navoihan holidays on a national scale. According to him, the agenda includes issues of creating a scientific biography of the poet, collecting, publishing and studying his works. Preliminary studies are published by literary scholars.

Keywords: Alisher Navoi, Jadids, classical sources, Chigatai literature, Sufism, press.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

XX asr avvalida dunyoviy inqiloblar zamirida bo'y ko'rsatgan jadidchilik harakatining asos mag'zini istiqlol umidi va yurt ozodligi g'oyasi tashkil qiladi.

Ma'rifatparvarlar Turkistonni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishi yo'lida bor kuchini safarbar etdi. Inqilobi o'zgarishlar davrida ziyorilar millat istiqbolini islohotlar orqali amalga oshirish mumkin deb hisobladilar. Islohotlar turli jabhalarda: milliy davlatchilik dasturini ishlab chiqish, davlat boshqaruva mexanizmini shakllantirish, ta'lim va tarbiya, madaniyat va san'at kabi sohalarda olib borildi. Islohot zamirida mumtoz madaniy merosimizga munosib vorislik, millat tarixini o'rganish va kitoblar nashr qildirish, o'zlikini saqlab qolish hamda diniy-milliy qadriyatlarni asrash yo'lida bir qator vazifalar belgilab olinadi.

XX asr avvalida yangi o'zbek adabiyot dunyo yuzini ko'rdi. Yangi milliy adabiyot qanday bo'lmog'i va mumtoz merosni qanday yo'sunda o'rganish masalasi, darslik qo'llanmalar yaratish, "ilmiy hayotga kirish" masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz tabiatan nazmiy nazokatga moyil bo'lganligi bois badiiy balog'atni, so'z nafosatini qadrlagan. El orasida bedilxonlik, fuzuliyxonlik, yassaviyxonlik, navoiyxonlik kabi she'riyat yig'inlari bo'lib turgan. Xalq o'zi sevib o'qigan va qadrlagan mumtoz manbalarni o'rganib, yangi davr adabiyotiga tadbiq etish muammosi jadidlar oldida turgan muhim masala sanalgan.

Turkiy ulusining ulug' shoiri va millatning faxri sanalgan hazrat Alisher Navoiy ijodiy merosi ham jadidlarning e'tibor markazida bo'lganligi shubhasizdir. Shoirning boy ijodiy merosini o'rganish va ilmiy muomalaga kiritish, muammoga yondoshuv masalasi, mumtoz adabiyotni davrlashtirish zarurati kun tartibida turdi. Davriy yangilanishlar ko'lamida mumtoz adabiy merosni yoshlar ta'lim tarbiyasiga yo'naltirish, qadimiylar manbalarni ana'naviy usulda o'rgatish bilan birga ta'limda yangicha yondashuvar ishlab chiqish lozim edi. Xususan, Alisher Navoiy ijodiy merosini istiqlolni umidlagan Turkiston ahli uchun qay yo'sunda o'rganmoq kerak savol ko'pchilik ziyorilar e'tiborini tortdi.

Alisher Navoiy turkiy xalqlarning buyuk shoiri sanalgan. Shoир ijodi barcha turkiy qavmni yagona maslak atrofida birlashtirishga muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Jadidlarning rahnomasi I.Gaspiprali ham mumtoz adabiy manbalar haqida maxsus risola va maqolalar e'lon qilgan. Uning "Turkiston ulamosi" [1.] nomli risolasida Ibn Sino, Jaloliddin Rumi, Lutfiy, Atoiy, Sakkociy, Alisher Navoiy, Husayin Boyqaro, Ulug'bek singari Turkistonda yetishgan olim va shoirlar haqida ma'lumot beradi. Asardagi "*sohibi devon mashohiri shuarо*" (devon tartib etgan mashhur shoirlar) faslida Gaspiprali Alisher Navoiy va adabiy muhiti haqida keng to'xtalgan. Xususan, Navoiyni "*laqabi zullisonayn o'lub, hijrating to'quzunchi asri avoxirinda yetishan chig'atoy va Ajam shuarosining eng mashhurlaridandur,*

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

boxusus, turk(n)ing “rais ul-shuarosi” deb ta’riflaydi. Z.Abdurashidov “Alisher Navoiy, jadidlar va til” nomli maqolasida qo‘ydagi ma’lumotni keltiradi. “Mir Alisher turk dilina jon vermish zoti oliydir. Yozdig‘i shaylar Movarounnahrda qo‘llanilgan “chig‘atoy” shevasindadir”. Muallifga ko‘ra Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga juda katta qiziqish bilan qaradi. “Navoiy turk olamining eng buyuk bir shoiri, eng buyuk adibi” deb baho beradi. Alisher Naoviy va Bobur turk tilning imkoniyatlarini nihoyatda kengaytirib yuborganigini ta’kidlaydi. 1906-yilda “Tarjimon” (№33) gazetasida Gaspiralining “Tarixi jadidi Turkiston” (Ibn Sino, Forobiy, Amir Temur va boshqalar haqida) (Boqchasarov) [2.13.] maqolasida ham Turkistonning ulug‘ allomalari haqida to‘xtalib o‘tilgan. “Turkiston viloyati gazeti”da 1902- yilda “Toshkentda sharqshunoslik bo‘limining tashkil bo‘lishi” haqida ma’lumot beriladi. 1911-yilda “Tarjimon” gazetasida “Chig‘atoy tili” (Alisher Navoiyning “Muholamat ul-lug‘atayin” asari haqida) nomli maqola e’lon qilinganligi xabar qilinadi [3.16.]. Rus sharqshunosi A.Samoylovich “Chetverastishiya tuyugi Navoi” nomli maqolasida ulug‘ shoirning tuyuqlarini xalq og‘zaki ijodi bilan aloqadorlikda o‘rganadi[4.13.].

1919-yilda Toshkentda jadidlardan tashkil topgan "Chig‘atoy gurungi" uyushmasi faol ish olib borishadi. Fitrat va uning maslakdoshlari tomonidan milliy adabiyot bilan bog‘liq bir qator chora tadbirlar ishlab chiqiladi. Jadidlar "Chig‘atoy ulusi" hududida yashagan barcha xalqlar tomonidan yaratilgan tarixiy, adabiy — madaniy boyliklarini atroficha o‘rganish, asrash, merosni kelajak avlodga munosib yetakazish maqsadida tizimli ish yuritishgan. 1919-yil “Ishtirokiyun” gazetasida “Navoiy rasmi” nomli xabarga ko‘ra “Chig‘atoy gurungi” jamiyatni Alisher Navoiy rasmini ishlatib, nashr ettingani ma’lum qilinadi. Uyushma nafaqat madaniy merosni, balki yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishida ham nihoyatda talabchanlik va xolislik bilan ish yuritilgan. Uyushmaning a’zosi Cho‘lponning: “Orada “Chig‘atoy gurungi” degan bir jamiyat chiqib qoldi. U jamiyatga mansub kishilar tilini soddallashtirmoq maqsadlarini asos qilib ushlaganlari holda o‘zbek adabiyotining tugallanishiga ham katta ahamiyat berdilar. Shuning uchun adabiy asarlarga haqiqiy qiymatini berib, adabiyotga kira olmagan narsalarini shafqatsiz suratda maydondan hayday boshladilar. ... “Chig‘atoy gurungi” asosini mahkam qurg‘onligi va chiziqni to‘g‘ri chizg‘onligi uchun — o‘zi yo‘q ketsa ham o‘zbekning yangi adabiyotida yangi, porlok, sharaflı sahifalar ochdi va ochmoqda davom etadir” fikrlari tarixiy-adabiy jarayonning manzarasini yoritib beradi. 1922-yili chop etilgan “O‘zbek yosh shoirlari” adabiy to‘plamiga kiritilgan Fitrat, Cho‘lpon va Botu, Elbek asarlari “gurung” chilarning dastlabki to‘plami bo‘lib, o‘zbek adabiyotining “porloq, sharaflik” sahifasiga aylanib ulgurdi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil 4-sentyabr sonida “Ishchi” (G‘ozi Yunus) taxallusi ostida “Navoiy kechasi” degan xabar bosilgan. “Xabarda aytishicha, o‘sha yilning 16-avgust kuni Toshkentdagи “Rohat bog‘cha” nomi bilan mashhur bo‘lgan teatr binosida Alisher Navoiyga bag‘ishlangan kecha bo‘lib o‘tgan. Kechada G‘ulom Zafariyning “Bahor”, Fitratning “O‘g‘uzxon” va “Temur sag‘anasi” bir pardali dramalari namoyish etilgan”. [5.21.]. Maorif komissariyati tomonidan 1921 yilda chiqarilgan “Bolalar dunyosi” jurnalida “Navoiy haqida” nomli maqola e’lon qilingan. Maqolada bolalar uchun shoir ijodining e’tiborli jihatlari yoritib berilgan.

El orasida Alisher Navoiyga nisbatan alohida mehr xalq orasidagi “bahri bayt” aytishuvlari, navoiyxonlik kechalari ana’naviy tarzda o‘tkazilib turilgan. Shoir ijodiga bo‘lgan rasmiy tadbirlar o‘tkazish rejasi 1926-yilda Alisher Navoiyning 500 yilligini o‘tkazish yuzasidan Turkiston Muxtor jumhuriyati hukumati va Turkiston o‘lka musulmon byurosi ma’naviy merosni to‘plib, nashr qilish orqali ommalashtirish ishlari yuzasidan qaror qabul qiladi. Ushbu qarorning ijrosini ta’minalash uchun Nazir To‘raqulov (rais) Abdurauf Fitrat (muovin), Laziz Azizzoda (kotib) tayinlanadi. Musulmon ishtirokiyun firqalarining o‘lka byurosi huzuridagi nashriyot sho‘basi tomonidan “Insoniyat haqida Navoiyning fikri” (1919) risolasi chop ettirildi. Adabiyotshunos olim H.Boltaboyev tomonidan Navoiy yubileyini o‘tkazish munosabati bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlarga boy maqolada muammo atroflicha yoritib berilgan” [6.2.].

1924-yilda O‘zbek bilim hay’atida bo‘lgan majlisda Alisher Navoiyning 500 yilligini o‘tkazish uchun Zehniy, Cho‘lpon, Ismoilzoda, Yusuf Kalonov va Elbeklardan iborat komissiya tuzilganligi haqda xabar beriladi [7.56.].

Cho‘lpon shu munosabat bilan “500 yil” (Navoiy yubileyi oldidan) nomli ochiq xat maqolasini nashr qildiradi. [8.]. Maqolada “*Chig‘atoy adabiyoti va tiliga Navoiyning qilg‘on xizmati juda ulug‘dir. Ba‘zi bir kishilar, Navoiydan ancha keyin chiqqan adib va shoirlarimizdan bir-ikkita soddarоq yozg‘onlarini ushlab olib, ularni haddan tashqari ko‘tarmak bilan naragini bir qadar tumanlashdirmoqchi bo‘lsalar ham, Navoiy o‘zbek tili va adabiyotida tegishlik yuksak mavqe‘ini oлg‘ondir. Usmonli adabiyotining eng ulug‘ vakili bo‘lg‘on Fuzuliyni mashhur usmonli yozg‘uchisi Shamsiddin Somibek Navoiydan keyinga qo‘yib, ko‘rsatadir. Mana bu ham, Navoiyning birgina o‘zbek qavmi adabiyotida emas, umum turk xalqi adabiyotida ham o‘ziga yarasha joy oлg‘onini ko‘rsatadir*”. Cho‘lpon ulug‘ shoirning turk tafakkurida tutgan o‘rnini va darajasini urg‘ulab “*ruslar Pushkinning har 5 yili uchun ham katta bayramlar yasaydirlar. G‘arbda esa unday bayramlar juda katta tantanalar bilan o‘tkaziladir. Bu to‘g‘rida gapni cho‘zib o‘ltirish hojat emas. Ko‘z*

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bilan ko'rganimiz ham yetib ortarli" deb izohlaydi. Shoir o'zbek bilim hay'ati e'tiboriga bir qancha takliflarni taqdim etadi:

"1. Hozirdan boshlab yaraliq kishilarimizdan bir hay'at tashkil qilib, 500 yillik bayramni mumkin qadar tantana bilan o'tkazish yo'lini topmoqg'a o'shal hay'at vakil qilinsun.

2. Hay'at Navoiyning bosilmag'on asarlarini topib, bosdirishg'a lozim ko'rulg'onlarini bayramgacha bosdirish chorasini ko'rsun.

3. Navoiyning mukammal tarjimai holi yozdirilsun.

4. Navoiyning shevalaridan terma bir asar tuzulub, nafis qilinib bosdirilsun.

5. Navoiy nomig'a yuqori o'qush yurtlarining adabiyot-til fakultetlarida o'zbek talabalari uchun stipendiyalar ochilsun.

6. O'zbekistonning poytaxtida Navoiyg'a haykal tikilsun.

7. Ba'zi bir o'zbek shaharlарining ko'cha ismlari Navoiy otig'a qo'yulsun".

Mazkur talablar doirasida bir qancha ishlar olib borilib matbuotda maqolalar e'lon qilinadi. Adabiyotchining "Navoiy xotirasi nima?" nomli [9.], Ashurali Zohiriyning "Navoiy", "Ona tili" [10.] maqolalarini aytib o'tish joizdir. Muallif o'zbek tilining sofligi yo'lida yozilgan maqolasida Navoiyning "Muhokamat ullug'atayin", "Mezon ul-avzon" asarlari orqali tilimizning "nazaran boyligini, she'rda bo'lg'on maziyatini, musiqada bo'lg'on latofatini" ko'rsatib bergenligini aytib, "Ona tiliga muhabbatি bor kishilar Alisher Navoiy asarlarini o'qub ko'rgonda tilimiz avvalida shuncha boy va mukammal ekan, yo'qotub kishi tanimaydurg'on bir holg'a kelturub qo'yduk" deya kuyinchaklik bilan fikr bildiradi. Mazkur maqola avval "Sadoiy Farg'ona" gazetasida keyin "Turkiston viloyati gazeti"da bositgan.

Jadid munaqqidlari orasida Vadud Mahmud Alisher Navoiy adabiy portyeretini yaxlit tarzda chizib berishga harakat qilganligi bilan ajralib turadi. Ulug' shoir ijodini o'rganishdagi fikr va xulosalar Vadud Mahmudning ilmiy-estetik va diniy-ma'rifiy adabiyotni chuqr bilganini ko'rsatadi. Adabiyotshunos B.Karimning Vadud Mahmud haqidagi tadqiqoti va maqolalari o'zbek adabiyotshunosligida muhim manba sifatida qimmatlidir. "Vadud Mahmud adabiy-tanqidiy maqolalarida asarning g'oya va mazmuniga emas, avvalo, uning nafisligi va nozik yasalishlariga, ya'ni badiyligi, shakli, uslubi va tiliga e'tiborni qaratadi. Shunga muvofiq talabi ham nihoyatda yuksak bo'lgan. She'rdagi musiqiy ohang, ruhiy yuksalish, chuqr dard va san'atkorona mukammallikni qadrlaydi" [11.]. Vadud Mahmud 20-yillardayoq zamonaviy adabiyotdan yuksak badiylikni, shakl va mazmundagi mukammallikni talab qilgani holda ko'hna adabiyotimiz tahlilini ham eng to'g'ri ilmiy yo'nalishga boshlagan olimlardan biridir. Munaqqidning "Ilmiy-adabiy vazifalar qarshisida" nomli maqolasida o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan vazifalar xususida so'z

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

boradi. Olim Turkiston diyoridagi inqilobiy yangilanishlar davrida ilm fan sohasida ham albatta o‘zgarishlar yuz berishi tayinligini aytadi. “*Bir kunmas bir kun albatta ilmiy hayotga kirmak majburiyati bordir. Chunki har bir mamlakat har bir millatning o‘z madanyy hayotini qurmoq uchun avvalan ilm maydoniga tashlanishi, so ‘ngra shu ilmiy hayot bilan yashashi kerakdir. Yo ‘qsa, u xalqning tarix sahifasidan yo ‘qolishi aniqdir*”. Vazifalarni ajratib olish xususida to‘xtalib e’tiborini Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga qaratadi. “*Navoiy turk adabiyotining otasidir. Navoiy adabiyot dunyosida juda katta xizmatlar qilg‘on bir kishidir. Navoiy turk tilining otasidir. Navoiy buyuk adib, buyuk shoir, buyuk dohiyidir.*

Faqat qani biz uni taniymizmi?” [12.]. Muallif savolni o‘quvchiga emas o‘ziga ham qaratadi. Shoir asarlarini to‘plash, ularni nashr ettirish zarurati haqida fikr bildirib, Navoiyning rasmini chiqardik, ammo hali tarjimi holini tayyorlamadik, “ilmiy hayotga kirish” lozimligini ta’kidlaydi.

Vadud Mahmudning “*Navoiy uchun*” maqolasi shoirning yubiliyeyi munosabati bilan yozilgan [13.]. Olim ulug‘ shoirni hijriy yil hisobi bilan 500 yil to‘lishi bilan Turkiya, Ozarbayjonda ham navoiyxonlik tadbiri o‘tkazish mo‘ljallanayotgani haqida xabar beradi. Bakuda o‘tkazilishi rejalashtirilgan “*Turkiston qurultoyi*”da Navoiy haqida tantanali tadbir o‘tkazilishi, to‘rt asarining “aynicha” bosilishi, mukammal tarjimai holi tayyorlanishi ham quvonarli hol ekanligini ta’kidlaydi. Muallifning “*Alisher Navoiy*” maqolasida “*Tarjimayi holi va tarbiyasi*”, “*Mutasavvufligi*”, “*Ilmiy, adabiy shaxsiyati*”, “*Navoiy bir mujiddir*”, “*Ilova*” kabi bo‘limlarga ajratib fikrlarini asoslab, qiyos va tahlil orqali dalillayd. [14.]. Vadud Mahmud shunday yozadi: “*Uning eng buyuk g‘ussasi sevgisining ikkiga bo‘linishi edi*”. Biri el dardi, ikkinchisi, madaniyat, ilm va san’atga ortiqcha berilgan”ligidir. Maqola so‘ngida “*Navoiyning asli muxim shaxsiyati na mutasavvufligi, na shoirligi, na tarix yozg‘onidir. Uning mumtozligi shunday qaynag‘on va yuzlarcha yildan beri singib ketgan forslikning markazida turklar muassasalarini qurishidir. Navoiyning forsiga va fors madaniyatiga bir dushmanlig‘i yo‘qdir, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri millatchi va turklikni sevaturg‘on bir shaxsiyatadir*” deb yozadi.

Vadud Mahmudning “*Bu kungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz*” maqolasida sharqning buyuk kishilari “*islom diniga va uning javhari bo‘lg‘on islomiy tasavvufga mansub*” bo‘lganligi bois “*bashariyatning ‘urfoni koinot*” haqida topg‘on yo‘llarining eng muazzami tasavvufdir” deb izohlaydi. Muallif “ishq”ni “haqiqiy va majoziy” deya ajratadi. “*Turkda «Hikmat» sohibi Yassaviy, «Lison ut-tayr» nozimi Navoiy, «Layli-Majnun» muallifi Fuzuliy, «Mabdai nur» egasi Mashrab, «Ilohiylar» egasi Oshiq Poshsho, «Ilohiy tarannumlar» sohibi Amiriylar shu ishq shoirlari edi*”.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Olim turk adabiyotini fikr va ma’no jihatdan ikkiga bo‘lingandan so‘ng “adabiyotning go‘zalligi va yasalishi bahsiga” to‘xtalib shakl va mazmun kategoriyasiga e’tibor qaratadi. Munaqqid yangi o‘zbek adabiyotini Turkiya adabiyoti taqlidi ta’siri ostida shakllanganligini e’tirof etadi. *“Ruhda va shaklda Turkiston, Qafqozyo, Qrim doimo Turkiyaga ergashadir. Navoiy asrida chig‘atoy adabiyoti kuchli bo‘lg‘onidan Turkiya adabiyoti bizning adabiyotdan ko‘b mutaassir bo‘lg‘on edi. Bu kuni esa g‘arb turk adabiyoti biznikidan kuchli, madaniy va adabiy hayotga molik bo‘lg‘onidan biznikilar ularga ergashmakdadirlar”* deb adabiy jarayonga munosabatini bildiradi. Maqolada she’r texnikasi, aruz va barmoq masalasi, she’riy shakllar, Edgar Poning adabiyotda ta’sir masalasi haqida so‘z boradi.

Turk tili “sharq turk adabiyotining oltun davrlari bo‘lg‘on Navoiy, Umarxon davrlari bilan g‘arb turk adabiyotining Fuzuliy, Boqiy, Nadim, Lola davri va asrimizda Homid, Nomiq va Fikrat kabi eng buyuk shoir va san’atkorlar qo‘lida ham keragincha ishlandi va turk tili shuning uchunda asriy bir holga kirdi” deb hisoblaydi.

Vadud Mahmud Umarxon davrini Navoiydan so‘ng “sharq turk she’rining ikkinchi oltun davri” deb aytaydi va fikrini misollilar asosida dalilaydi. Olimning navbatdagi maqolasi “Navoiygacha turk adabiyoti” [15.] deb nomlanadi. Muallif “yozma” va “el” adabiyotini tasniflab ko‘rsatadi. Alisher Navoiygacha bo‘lgan turk adabiyoti namunalari xususida so‘z boradi. Otajon Hoshim esa o‘zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotini ikki katta bosqichga bo‘ladi: chig‘atoy (Navoiy davri) va jadid davri. “Chig‘atoy adabiyoti adabiyotimizning eng gullagan davridir. To jadid adabiyotiga qadar bo‘lgan adabiyot bu davr adabiyotining pasaygan shaklda asosan kaytarilishidan iboratdir” [16.9.]

Bu davrda Alisher Navoiy haqida jiddiy fundamental ilmiy izlanishlar qilgan olimlardan biri Fitrat sanaladi. Olim shoirning ilmiy, adabiy, diniy ma’rifiy merosini tizimli va asosli ravishda tartiblagan. Mazkur tadqiqotlari orqali Fitrat chig‘atoy davri turk adabiyoti va Navoiy ijodining yetuk bilimdoni ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Fitrat “Adabiyot qoidalari”, (1926); “Eng eski turk adabiyoti namunalari”, (1927); “O‘zbek adabiyoti namunalari”, 1-jild, (1928); “Fors shoiri Umar Hayyom”, (1929); “Aruz haqida”, (1936) risola va kitoblarida ulug‘ shoirning asarlari bilan bog‘liq qimmatli fikrlarni bayon qilgan.

Abdurahmon Sa’diyning “Chig‘atoy davri o‘zbek adabiyoti” (1922), “Ulug‘ kishilar” (Yassaviy kim edi?) (1922), “Chig‘atoy va o‘zbek adabiyoti va shoirlari”, (1922), “O‘zgarish davrida o‘zbek adabiyoti” (1922) tadqiqotlari ham navoiyshunoslikning ilmiy estetik ahamiyat kasb etadigan izlanish sifatida e’tiborga loyiqidir.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Alisher Navoiyning tavalludi munosabati bilan vaqtli matbuotda bir qancha maqola e'lon qilingan. Ilmiy markaz qoshidagi "O'zbekistonni o'rganish qo'mitasi" Navoiy nomiga bir majmua nashr qilishga qaror qilgan degan xabar gazetada e'lon qilingan. ("Qizil O'zbekiston" 1925.10.09.). "Navoiy nomiga majmua" "Navoiy yubileyi" (Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish borasida qilingan ishlar xususida) ("Qizil O'zbekiston". 1925.23.12.), "E" taxallusli muallifning "Fuzuliy va Navoiy to'g'risi" ("Maorif va o'qituvchi".1925.№ 4.), Ismoil Hikmatning "Alisher Navoiyning hayoti va adabiy mavqeい" nomli kitobi nashr qilingani to'g'risida ma'lumot beriladi. Kitobga taqriz bergen V.Mahmudning "Turk adabiyot tarixi" maqolasi ("Maorif va o'qitg'uvchi". 1925. №9-10.) bosilgan. Taqrizda "Ozarboyjon Xalq Maorif kamisarligi fanniy metod sho'rosi tomonidan tasdiq etilmish va Ozarboyjon nashriyoti tomonidan 5 ming nusxada bosilg'on'i xaqida ma'lumot berilgan. I.Hikmat "Navoiyda lirizm" ("Maorif va o'qituvchi".1928.№ 7). Rahmon F. "Navoiy va chig'atoy adabiyoti" (("Maorif va o'qituvchi". 1925.№ 5-6), Samoilovich A.N. "Navoiy to'g'risida Ovrupa olimlari" (Qizil almanax. Samarqand.1-kitob 1928).

Jadid davri adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodi katta qiziqish va chin muhabbat bilan o'rganilgan. Ma'rifatparvarlar mumtoz adabiyot tarixini yaratish, davrlashtirish, turk adabiyoti tarixi, Navoiy ijodini ilmiy nazariy jihatdan tadqiq etishni maqsad qilishadi va bu yo'lda dastlabki natijalarni qo'lga kiritishgan. Alisher Navoiy millatning tarixi bilan chambarchas bog'lagan ulug' olimdir. Insoniyatning ulug'i sanalgan Navoiy ijodi jadidlar uchun ma'rifat va jaholatdan saqlovchi ma'naviy pir sifatida qadr qiymat kasb etgan.

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://ziyouz.uz/jahon-nasri/ismoilbek-gasprinskii>
2. Ш.Турдиев, Б.Кориев. Ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилиги библиографияси. 1900-1941. Тошкент. Фан. Б.13.
3. Ш.Турдиев, Б.Кориев. Ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилиги библиографияси. 1900-1941. Тошкент. Фан. Б.16.
4. А.Самойлович. Четверастишия туюги Навои. Мусулманский мир. Петербург. № 3. Стр. 10 13.
5. Каримов Н. Хуррият байроғи|| ЎзАС. 2008.№ 21.
6. Болтабоев Ҳ. Алишер Навоийнинг илк юбилейи|| Жаҳон адабиёти.2016.№.2.
7. Ш.Турдиев, Б.Кориев. Ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилиги библиографияси. 1900-1941. Тошкент. Фан. Б.56.
8. Чўлпон. 550 йил. (Навоий юбилии олдидан)|| Туркистон.1924.23.09.
9. Адабиётчи. Навоий хотираси нима??// Кизил Ўзбекистон.1925. 26 май.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

10. Зоҳирий А. Навоий. (Таржимаи ҳол)// Адабиёт парчалари. Тошкент.1925.
11. Б.Карим.Жадид мунакқиди Вадуд Маҳмуд. Тошкент. Университет.2000; Б.Карим. Мунаққид ҳақида сўз. Вадуд Маҳмуд.Танланган асарлар. Тошкент.2007.
12. Вадуд Маҳмуд. Илмий-адабий вазифалар қаршисида// Зарафшон.1924. 21 июн.
13. В.М. Навоий учун // Ер юзи.1925.21 дек.
14. Вадуд Маҳмуд. Бу кунги шеърларимиз ва санъаткорларимиз // Маориф ва ўқитувчи.1925.№ 4-8. Қайта нашрлари : Ёшлиқ. – 1991. 5-сон (нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев).
15. Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2007. – Б. 29-36 (нашрга тайёрловчи Б.Каримов).
16. Отажон Ҳошим. Пролетариат ва чигатой адабиёти тўғрисида. Т., 1928 й. 9-бет